O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi (Ekopolitsiya**) Muhofaza etiladigan tabiiy hudud va o‘rmonlarni nazorat qilish boshqarmasi, Bo‘stonliq maxsus ekopolitsiyasi bosh mutaxassisi (**davlat katta ekologiya inspektori**) lavozimiga qo‘yiladigan**

MALAKA TALABLARI

Bosh mutaxassis		
Ma’lumot	Nomzod oliy ma’lumotga ega bo‘lishi, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, tabiiy fanlar, iqtisodiyot, yuridik sohalar hamda ushbu yo‘nalishlarga turdosh sohalar bo‘yicha oliy ma’lumotga ega bo‘lishi lozim.	
Mutaxassislik		
Mehnat staji	Nomzodning umumiy mehnat staji kamida (3) uch yilni tashkil etishi shart.	
Davlat tilini bilishi	Nomzod davlat tilini mukammal darajada bilishi, xizmat faoliyatini davlat tilida yuritish, rasmiy hujjatlar bilan ishlash hamda ish yuritish qoidalariga rioya qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi shart.	
Xorijiy tilni bilish darajasi	Nomzod xorijiy tillarni bilish darajasini tasdiqlovchi milliy yoki xalqaro darajada tan olingan sertifikatlarga ega bo‘lishi afzal hisoblanadi.	
Kompyuter savodxonligi	Kompyuter savodxonligi bo‘yicha nomzod zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana olishi, MS Office dasturlar paketi, ayniqsa Excel dasturi bilan mukammal ishlay olishi hamda Internet tarmog‘idan xizmat vazifalarini bajarishda foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.	
Qo‘shimcha talablar	ekologik nazorat sohasida, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi organlariga yuklatilgan vazifalarning bajarilishini ta’minlashga qodir bo‘lishi; ma’muriy choralar, jarimalar va ta’sir choralarini qo‘llash tartibini bilishi; tekshiruvlarni qonuniy asosda o‘tkaza olishi; ekologik nazorat natijalari bo‘yicha umumlashtirilgan hisobotlarni tayyorlay olishi; hududiy ekopolitsiyalar faoliyatini tashkil etish, nazorat qilish, topshiriqlar ijrosini ta’minlash va ijro intizomini mustahkamlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi; hududiy ekopolitsiyalar faoliyatiga oid hisobotlar, tahliliy ma’lumotnomalar, xizmat yozishmalari va boshqa rasmiy hujjatlarni sifatli tayyorlay olishi; hududiy ekopolitsiyalar tomonidan amalga oshirilayotgan profilaktika, nazorat va monitoring tadbirlari bo‘yicha ma’lumotlarni umumlashtirish, tahlil qilish hamda tegishli takliflar tayyorlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi; hududiy ekopolitsiyalar faoliyatiga oid statistik ma’lumotlar, tahliliy axborotlar, hisobotlar, xizmat	

	xatlari, ma’lumotnomalar va boshqa rasmiy hujjatlarni belgilangan tartibda tayyorlay olishi; xizmat ma’lumotlari va maxfiy axborotlar bilan ishlashda qonunchilik talablari va ichki tartib-qoidalarga qat’iy rioya qilishi talab etiladi.	

Mazkur lavozim belgilangan tartibda 5 (besh kun muddatda) tanlovga chiqariladi (12-16.10.2026).

Mazkur vakant lavozimga quyida keltirilgan elektron pochta orqali hujjat topshirishlaringiz mumkun.

Murojaat uchun 71 207 07 70 (3030)